

**KOMPLAYENS NAZORAT TIZIMI VA UNING O‘ZBEKISTONDA
JORIY ETILISHI**

Amankulova Gulnora Yelmurot qizi

Toshkent davlat yuridik unversiteti

[*gulnoraaman2000@gmail.com*](mailto:gulnoraaman2000@gmail.com)

***Annotatsiya.** Maqolada komplayens-nazoart tizimining xavf va yo‘qotishlardan ogohlantirish va huquqiy himoya chorasi sifatida ko‘rib chiqiladi. Ish “komplayens” tushunchasini, uning paydo bo‘lishi va rivojlanish tarixini, uni O‘zbekiston va xorijiy huquqlarda birlashtirish usullarini ochib berishga qaratilgan. Maqolada komplayens-nazorat yo‘qligi, uni qo‘llashning ijobiy tomonlari, uning yangiligi va rivojlanish istiqbollari, uni qo‘llashning dolzarb sohalari aks ettirilgan.*

***Kalit so‘zlar:** komplayens, komplayens nazorat tizimi, korrupsiya, ichki nazorat tizimi, korrupsiyaga qarshi kurash.*

Huquqshunoslikning asosiy qismi - normativ-huquqiy talablarga muvofiq faoliyat olib borishdir. Sohaning rivojlanishi nafaqat sayqallangan jarayonlarni modernizatsiya qilishni, balki jamiyat va kasbiy muhit ehtiyojlariga zudlik bilan javob berishni ham talab qiladi. Huquqshunoslik sohasida “komplayens” tushunchasi yangi atama hisoblanadi. O‘zbekistonda “komplayens-nazorat” faqat tor doira sohasi, ya’ni korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida joriy etilgan bo‘lib, bu atama butun ommaga ma’lum emas. Komplayens nazorat tizimi xoij tajribasida korrupsiyaga qarshi kuarashish sohasidan tashqari bir qancha sohalari, jumladan

bank, moliya, davlat boshqaruvi, sog‘liqni saqlash, qurilish, soliq va ayniqsa biznesni samarali boshqarishda keng qo‘llaniladi.

Mamlakatimizda komplayens nazorat tizimi hozirda faqat korrupsiyani minimallashtirish maqsadida joriy etilgan. Komplayens nazorat boshqa xorij mamalakatlarida asosan tadbirkorlik sohasida tashkil etilgan bo‘lib, asosiy vasifasi vujudga kelishi mumkin bo‘lgan risklarni oldini olib, foliyatni talab etilgan normalar asosida tashkil etish maqsadida tashkil etilgan. Davlat va xususiy sektordagi korxonalar va tashkilotlar uchun bir xil darajadagi xatar bu korrupsiyaviy holatlar hisoblanadi. aynan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida mamkakatimizda tegishli islohotlar o‘tkazilishi natijasida komplayens nazorat tizimi joriy etilgan.

“Komplayens” tushunchasi asli ingliz tilidan olingan bo‘lib, uning aynan O‘zbekcha tarjimai muvofiqlik, rozilik hisoblanadi va aniq belgilangan qoida, standart hamda ko‘rsatmalarga muvofiq faoliyat yuritish kabi ma’nolarni anglatadi.

International Compliance Association (Xalqaro Komplayens Assotsiatsiyasi) ning ta’rifiga ko‘ra, “komplayens - bu faoliyatning belgilangan talablar va standartlarga muvofiqligini ta’minlash” hisoblanadi

Komplayens biznesning huquqiy, moliyaviy va obro‘-e’tibori bo‘yicha risklarini aniqlash, shuningdek ularni minimallashtirish uchun mo‘ljallangan. Komplaens tashkilotlarning moliyaviy mablag‘larini himoya qiladi, ularning barqaror ishlashi va rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydi. Komplayens korporatsiyasi Converge Point Inc. 2013 yilda AQSh kompaniyalarining muntazam xarajatlarini 112 million dollarga kamaytirishga imkon berganligini aniqladi.

Komplaens nazoratini vujudga kelishini ayrim manbalarda 19-asr oxirlari 1884-yil Germaniyada “Baxtsiz hodisalarning oldini olish va sug‘urtalash assotsiatsiyasi”ning (Accident Prevention & Insurance association) tashkil etilishi bilan bog‘liqligi haqida yozilgan.

Yuqoridagi ma'lumotlarda komplaens ilk bora Germaniyada vujudga kelganligi haqida tushuncha bor bo'lsada, ammo boshqa xorijiy manbalarda AQShlik olim Martin Klingning komplaens tarixi haqida yozilgan ilmiy kitobida komplaens tizimi dastlab 1906 yilda AQShda oziq-ovqat mahsulotlari va dori vositalarini ishlab chiqaruvchi kompaniyalar faoliyatini nazorat qiluvchi federatsiya xizmatining FDA (Food and Drug Administration) tashkil etilishi va bunday tashkilotlarni faoliyati AQSh fuqarolari xavfsizligi uchun tashkil etilish ehtiyoji yuzaga kelgan deb keltirilgan.

Tashkil etilgan FDA agentligi faqat dori vositalari va oziq-ovqat sanoatidagi qonun-qoidalar, talab etiladigan normalar ishlab chiqib, ular asosida bu ikki sohadagi kamchilik, muammolar va bo'lishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlar ustidan nazorat qilib, samarali faoliyat olib borishini ta'minlashgan. Bu bilan aholi xavfsizligini samarali ravishda himoya qilishgan. Bunda komplaens xizmati vujudga kelib, boshqa sohalarda ham bu tizimni joriy etish, masalari ko'rilgan.

O'zbekiston amaliyotda "komplayens" va "komplayens nazorat" tushunchalari yangi atamalalar hisoblanadi. Bu tushunchalarni kirib kelganiga hali besh yil bo'lmagan bo'sada vazirliklar, davlat tashkilot va muassalari tajribalida qo'llanilib, ayrim xususiy sektordagi yirik korxonalarda tashkil etilganini ko'rishimiz mumkin, lekin hali xamon bu tushunchani to'liq nima ekanini hamma ham bilmaydi.

Komplayens nazorat tizimi ko'p sohalarda risklarni oldini olish, talab etilgan normal asosida faoliyatni tashkil etish uchun joriy etilgan, lekin hozirda O'zbekiston amaliyotida faqat korrupsiyaga qarshi kurshish maqsadida joriy etilgan.

Korrupsiya barcha sohalarda davlat va xususiy sektordagi eng asosiy hamda jiddiy muammo hisoblanadi va bunda prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ham bunday muammoga katta e'tibor qaratib, korrupsiyani oldini olish, aholining huquqiy ongini oshirish va korrupsiyaga bo'lgan murosasiz munosabatini shakillantirishga qilayotgan sa'y-harakatlarinidan ko'rishimiz mumkin.

Korrupsiya bu davlatning tarraqiy etishishining eng katta kushandasi hisoblanadi, lekin bunga qarshi kurashish borasida qarib yigirma besh yildan ortiqroq deyarli islohotlar o‘tkazilmagan. Prezidentimiz 2017-yilda bu sohada islohotlar qilishning eng birinchi qadamini 3-yanvarda “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonuni imzolagandan keyin boshlandi. Bu qonunda ilk bora korrupsiya, manfaatlar to‘qnashuvi, korrupsiyaga oid huquq buzarlklar kabi atamalarga ta’rif berilgan. eng asosiy jihatidan biri “komplayens-nazorat”ning muhim elementi bo‘lgan korrupsiysaviy jinoyatlar haqida habar berish haqida keltirilgan.

Unga ko‘ra, “davlat organlarining xodimlari ularni korrupsiyaga oid huquqbuzarlklar sodir etishga ko‘ndirish maqsadida biror-bir shaxs o‘zlariga murojaat etganligiga doir barcha hollar to‘g‘risida, shuningdek davlat organlarining boshqa xodimlari tomonidan sodir etilgan shunga o‘xshash huquqbuzarlklarning o‘zlariga ma’lum bo‘lib qolgan har qanday faktlari haqida o‘z rahbarini yoxud huquqni muhofaza qiluvchi organlarni xabardor etishi shart” deb belgilangan.(26-modda).

Ilk bora “komplayens-nazorat” tushunchasi 2019-yil 27-maydagi o‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “o‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2019-2020 yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish Davlat dasturi”ning 21-bandida keltirilgan. Bunda ustav jamg‘armasida davlat ulushi bo‘lgan tashkilotlatda korrupsiyaga qarshi kurashish choralari kuchaytirish maqsadida korrupsiyaga qarshi “komplayens-nazorat”(compliance control) tizimini joriy etish va uning samaradorligini monitoring qilish belgilangan.

Farmon asosida 2019 yildan boshlab BMT Taraqqiyot dasturining “o‘zbekistonda samarali, hisob beruvchi va oshkora boshqaruv institutlari orqali korrupsiyaga qarshi kurashish” loyihasini amalga oshirish doirasida mas’ul idoralardan biri Bosh prokuratura, adliya vazirligi bilan hamkorlikda va

faoliyatning o'ziga xosligidan kelib chiqib, davlat ulushi 50% dan yuqori bo'lgan davlat tashkilotlari hamda aksiyadorlik jamiyatlarida, shuningdek tashqi bozorlarda faoliyat olib borayotgan yoki chet ellik sheriklari bo'lgan yirik kompaniyalarda tajriba sifatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarini aniqlash maqsadida kamplayens nazorat tizimini joriy etish tizimini belgilangan.

Bu loyihani davlat tashkilotlarida joriy etish bo'yicha xalqaro tender o'kazilib, unda g'olib bo'lgan xalqaro auditorlik kompaniyasi "KPMG" (Italiya) kompaniyasi ekspertlari bilan birgalikda "O'zbekneftgaz" va "O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyatalari hamda o'zbekiston Respublikasi adliya Vazirligi tizimidagi vazirlik markaziy apparati, Samarqand viloyat adliya boshqarmasi, Jomboy tumani adliya bo'limi, Davlat xizmatlari agentligi markaziy apparati, agentlikning Toshkent shahar boshqarmasi, Yunusobod tuman Davlat xizmatlari markazi, Intelektual mulk agentligi markaziy apparatibi davlat tashkilotlarida tajriba loyiha sifatida korrupsiyaga qarshi kurashish komplayens nazorat tizimi tashkil etilgan.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi tashabusi bilan BMT Taraqqiyot dasturining asosida O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, shuningdek, Toshkent shahar hokimligi, Toshkent viloyati hokimligi, Mirzo Ulug'bek tumani va Bo'ka tumani hokimloklari kabi davlat idoralarida komplayens nazorat tizimi tashkil etilgan.

Yuqoridagi tashkilot va korxonalarda komplayens tizimini joriy etishning 4 bosqichi amalga oshirilgan:

1-bosqich. Korrupsiyaga qarshi kurashish komplayens nazorat xizmatini holatini aniqlab taxlil o'tkazish;

2-bosqich. Korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar va nazorat qilish mexanizmlarini ishlab chiqish yoki mavjud bo'lsa takomillashtirish;

3-bosqich. Korrupsiyaga qarshi kurashish "komplayens-nazorat" tizimini joriy etish;

4-bosqich. Joriy qilingan korrupsiyaga qarshi kurashish “komplayens nazorat” tartib qoidalarini samaradorligini baholashdan iborat bo‘lgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2020 yil 11 fevralda “Korrupsiyaga qarshi kurashish hamda jamoatchilik nazorati tizimlari takomillashtiriladi” nomli yig‘ilish o‘tkazib, ichki korrupsiyaga qarshi kurashishda komplayens nazorat tizimini vazirlik, kompaniya va hokimliklarda joriy etish masalarini ko‘rib chiqilib, yig‘ilishdagi belgilangan asosiy vazifalardan biri bo‘ldi.

O‘zbekistonda birinchilardan bo‘lib “O‘zavtosanoat” AJ tizimida xalqaro yuridik firma “White and Case LLP” bilan birgalikda jahon standartlariga mos keladigan korrupsiyaga qarshi komplayens nazorat tizimi joriy etilgan. Kompaniyada alohida shtat birliklariga ega bo‘lgan, faqatgina rahbariyatga bo‘ysinuvchi komplayens tizimi tashkil etildi. 2018 yil 17 yanvada “GM Uzbekistan” AJ kuzatuv kengashi tomonidan “Komplayens bo‘yicha yo‘riqnoma” (Compliance handbook) va “odob-ahloq kodeksi va komplayens” (Code of ethics and compliance) kabi faoliyatlarning yuridik asoslari tashkil etilgan.

“Komplayens bo‘yicha yo‘riqnoma”da kompaniyaning ushbu xizmatini joriy etish bo‘yicha standartlarni o‘z ichiga olgan, unda korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatini amldagi qonunlar va kompaniyadagi ichki lokal hujjatlariga asosan tashkil etish va xodimlarga qo‘yilgan qoidalarga ko‘ra harakat qilishini belgilaydi. Yo‘rinomada 7 bo‘lim mavjud bo‘lib, ular quyidagilarni tashkil etadi:

1. Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati;
2. Sovg‘a, ko‘ngilochar dasturlar, mehmondo‘stlik va sayohat harajatlari;
3. eksport nazorati va sanksiyalar;
4. *Due diligence* prinsipi;
5. Firibgarlik va jinoiy yo‘l bilan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizimni moliyalashtirishga qarshi kurashish siyosati;
6. Manfaatlar to‘qnashuvi;
7. Qonun buzilishi va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar berish tartibi bo‘limlaridan tashkil topgan.

Yo‘riqnomada xodimlar o‘rtasida sovg‘a berish va qabul qilish to‘g‘risida sovg‘a, ko‘ngilochar holatlar, mehmondo‘stlik va sayohat deya atalgan bo‘limda tartiblari belgilangan. Bunda kompaniya xodimlari 10 AQSH dollari (milliy valyutadagi ekvivalenti) miqdorida kompaniya nomidan xodimlarga sovg‘a berish yoki xodimlar o‘z rahbarlariga taqdim etishlari yoki qabul qilishlari talabi kiritilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 17 fevralda 72-F-sonli Farmoishi qabul qilingan, unga ko‘ra davlat tashkilotlarida komplayens nazorat tizimini joriy etishda quyidagilarga alohida etibor qaratilgan:

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni o‘z vaqtida aniqlash, ularga chek qo‘yish, ularni oqibatlarini, ulargani yuzaga keltiruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish hamda ularni minimum darajaga tushirish;

davlat organlari va tashkilotlarning hisobdorligi va faoliyatining shaffofligini oshirish;

xodimlar tomonidan kasbiy odob-ahloq qoidalariga qat‘iy rioya etish va xizmat vazifalarini bajarishda manfaatlar to‘qnashuvi haqida xabar berish hamda ularni hal qilish masalalarini tartibga solish;

korrupsiyaga qarshi kurashishda idoraviy chora-tadbirlarni amalga oshirish ustidan ichki nazorat mexanizmlarini kuchaytirish;

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi umum e‘tirof etilgan xalqaro standartlar va chet el samarali tajribalarini joriy etish.

Shuningdek, komplayens nazoratni korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlarini davom ettirgan holda 2020 yil 15 mart kuni o‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori hamda o‘zbekiston Respublikasi “O‘zbekneftgaz” AJ tizimida korrupsiyaga qarshi kurashishni yanada takomillashtirish bo‘yicha 2020 yil uchun “Yo‘l xaritasi” tasdiqlandi. Bunda BMT Taraqqiyot dasturi yordamida komplayens nazorat tizimini davlat tashkilot va idoralarda joriy etilish bo‘yicha amalga oshirilayotgan loyihani jadallashtirish, komplayens nazorat tizimi

samaradorligini doimiy monitoring qilib borish, jahonning yetakchi, raqobatbardosh kompaniyalariga jamiyat xodimlarini tajriba o'tash uchun jo'natib, ularda tadbiq etilgan "Korrupsiyaga qarshi kurashish menejmenti" ISO-37001 tizimlari tajribasini joriy etish vazifalari belgilangan.

O'z navbatida neft-gaz sohasi mamlakatiz iqtisodiyotidagi katta ahamiyati, jahon bozoridagi eksport-importdagi faoliyatidagi roldan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 20 apreldagi PQ-4664-sonli "Neft-gaz tarmog'ining moliyaviy barqorligini oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori qabul qilingan. Unga binoan, 2020 yil 1 oktyabrga qadar neft-gaz tarmog'idagi barcha korxonalarda korrupsiyaga qarshi komplayens nazorat tizimini joriy etilishini ta'minlash vazifasi belgilangan.

Shuningdek, o'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 iyundagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6013-sonli Farmonga asosan o'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi. Bu agentlikning asosiy vazifalaridan biri etib 2020-2021 yillarda barcha davlat va xo'jalik yurituvchi subyektlar, davlat korxonalari va davlat ulushiga ega korxonalar, jumladan banklar ham korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi (komplayens-nazorat) bosqichma-bosqich joriy etish belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida 2020 yil 27 iyul kuni o'tkazilgan yig'ilishda topshirilgan vazifaga muvofiq, 2020 yil 4 sentyabr kuni "Yashirin iqtisodiyot hamda korrupsiyaga qarshi muvofiqlik ("komplayens-nazorat") tizimi"ni joriy etish yuzasidan 26 ta vazirlik va idoralarda "Yo'l xaritalari" tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5177-son Qaroriga ko'ra, 2021-yil 1-oktabrdan boshlab barcha davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarida

mayjud shtat birliklari doirasida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati yoʻlga qoʻyish vazifasi belgilangan.

Bunda, har bir davlat organlari va tashkilotlar faoliyat yoʻnalishidan kelib chiqib, korrupsiyaga qarshi kurashishga doir quyidagi yoʻnalishdagi choratadbirlarishlab chiqildi:

vazirlik va idoralar kesimida korrupsiyaviy vavf-xatarlarni minimallashtirish hamda yashirin iqtisodiyot va korrupsiyaga qarshi muvofiqliktizimini keng joriy etish;

soha faoliyatida zamonaviy axborot texnologiyalarni keng joriy etish orqali “inson omili” qisqartirish;

davlat xizmatchularining korrupsiyaga qarshi huquqiy bilimni oshirish va ularda korrupsiyaga nisbatan murosasiz madaniyatni shakillantirish;

har bir tashkilotning manfaatdorligi asosida oʻz tizimida korrupsiyaga qarshi ichki nazoratitizimini joriy etish va mazkur faoliyatni takomillashtirib borish kabilar ishlab chiqilgan.

Jumladan, Xalq taʼlimi vazirligida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini samarali yoʻlga qoʻyish natijasida, manfaatlar toʻqnashuvini tartibga solish hamda bu holatda xodimning huquq va majburiyatlarini belgilashga doir oʻndan ortiq korrupsiyaga qarshi kurashishga doir lokal hujjatlar qabul qilindi, 48 mlrd. ga yaqin moliyaviy xato va kamchiliklar aniqlandi.

Sogʻliqni saqlash vazirligida 56 mlrd. soʻmdan ortiq miqdordagi moliyaviy xato kamchiliklar, shundan 7 mlrd. soʻmlik kamomad va oʻzlashtirishlar, 12 mlrd. soʻmlik maqsadsiz xarajatlar aniqlangan boʻlib, davlat budjetiga yetkazilgan 9 mlrd. soʻmlik zararning undirilishiga erishildi. Bundan tashqari, Davlat soliq qoʻmitasi huzuridagi Kadastr agentligi tizimidagi xodimlar attectastsiyasi oʻtkazilib, unda 1476 nafar xodimlar bilan mehnat shartnomasi bekor qilingan.

Fikrimizcha, hozirda komplayens tizimini bosqichma-bosqich joriy etilmagan boshqa davlat tashkilotlarda va xususiy sektordagi xoʻjalik yurituvchi

subyektlarga, barcha banklar va sug'urta kompaniyalariga ommaviy tarzda joriy etish barcha jihatdan dolzarbligini ko'rsatmoqda.

Xulosa

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytganda komplayens nazorat tizimi o'zbekiston tajribasi uchun yangilik hisoblanadi va hozirgi kunda komplayens nazorat tizimi faqatgina korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida joriy etilgan. Bunda davlat tashkilotlarining barchasida bu tizim to'liq tashkil etilmagan bo'lsada, bosqichma-bosqich joriy etilib, biz kutayotgan natijalarga erishmoqdamiz. Shuningdek ustav kapitalining 50% dan yuqori ulushga ega bo'lgan korxonalar va aksiyadorlik jamiyatlarida ham bu tizim joriy etilgan bo'lib, yirik korxonalar hamda xorijiy sheriklarga ega bo'lgan tashqi bozorda ham faoliyat olib borayotgan korxonalar va tashkilotlarda ham bosqichma-bosqich korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi komplayens nazorat tizimini tashkil etilmoqda.

Mazkur tizim korrupsiya xavf-xatarlarini o'z vaqtida aniqlash va chek qo'yish, ularning kelib chiqishi mumkin bo'lgan oqibatlarini, bunday holatga olib keluvchi shart-sharoitlarini va sabablarini bartaraf etish hamda korrupsiyaviy holatalarni minimum darajaga tushirishga xizmat qiladi. Bu tizimni eng katta yutuqlaridan biri tashkilot va korxonalarda xodimlarni ichki va xalqaro talab etilgan normalar asosida faoliyat yuritishi, korrupsiyaviy holatlarni yuzga kelmasligi, manfaatlar to'qnashuvini amalga oshmasligini ta'minlash va tashkilotni kelajakda yuz berishi mumkin bo'lgan korrupsiyaviy xavf-xatarlar yuzaga kelishini oldini olish hisoblandi.

Bunday samarali tizimni korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidan boshqa sohalarda ham foydalanish va xususiylar sektordagi o'rta va yirik tadbirkorlik faoliyatini olib borayotgan sohalarda ham komplayens nazorat tizini joriy etish jamiyatimizdagi uchrab turayotgan muamolarni kamayishida katta ahamiyatga ega bo'ladi.

FOYDALANILGA ADABIYOTLAR

1. DeStefano M. The Chief Compliance officer // The Compliance Movement. – 2016. – Vol. 2 (5). – [elektron manba]. URL: <https://thepractice.law.harvard.edu/article/the-emergence-of-compliance>
2. ISO 37001 - anti-bribery management systems”//[elektron manda]. URL: <https://www.iso.org/ru/standard/62342.html>.
3. ConvergePoint Inc. // [elektron manba] URL: <https://www.convergepoint.com/>
4. Martin Kling “History of Compliance–Part one, from adam to Sarbanes oxl History of Compliance–Part one, from adam to Sarbanes oxley ey”, 2017 – P. 54. // <https://www.ariscommunity.com>.
5. Kocziszky G. “anti-corruption compliance in the enterprise’s program”2017 – P.43.//[elektron manba].URL: <https://drive.google.com>.
6. O‘zbekiston Respublikasining 2017 yil 3 yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qununi // [elektron manba]. URL: <https://lex.uz/acts/-3088008>
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 maydagi “o‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son Farmoni // [elektron manba]. URL: <https://lex.uz/docs/4355387#4355821>
8. Антикоррупционные реформы в Узбекистане (4-й раунд мониторинга в рамках Стамбульского плана действий по борьбе с коррупцией) // [Электрон манба]. URL: https://www.oecd.org/corruption/acn/oeCD-aCN-Uzbekistan-4th-Round_Monitoring-Report-2019-RUS.pdf.
9. Compliance handbook//dated January 17, 2018//approved by Supervisory Board of JSC GM Uzbekistan [elektron manba]. URL: <https://uzautomotors.com/companies/compliance>.

10. Code of ethics and compliance//dated January 17, 2018//approved by Supervisory Board of JSC GM[elektron manba]. URL: <https://uzautomotors.com/companies/compliance>.
11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 17 fevraldagi, 72-F-son Farmoishi // [elektron manba]. URL:<https://lex.uz/docs/-4739741?type=doc>
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 20 apreldagi "Neft-gaz tarmog'ining moliyaviy barqarorligini oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4664-sonli // [elektron manba]. URL: <https://lex.uz/docs/460378>.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 iyundagi "o'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6013-sonli Farmoni // [elektron manba]. URL: <https://lex.uz/docs/4875784>.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 6 iyuldagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5177-son Qarori // [elektron manba]. URL: <https://lex.uz/uz/docs/-5495533>
15. Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat (komplayens) tizimini joriy etish bo'yicha qo'llanma (to'ldirilgan yangi nashr) 2022 // [elektron manba]. URL: <https://anticorruption.uz/uz>